

5. Jurayeva I.A. O‘zbek antroponimlarining ijtimoiy ahamiyati.
6. Markaziy Osiyo ijtimoiy tadqiqotlari jurnali. Toshkent -2020 1(2). 56-66 b
7. Losev A.F. Бытие. Имя. Kosmos. Moskva: Мысль: Рос. откытыу un-t, 1993. - S. 628.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARDAGI GEOLOGIYA TERMINLARI BO‘YICHA LEKSIKOGRAFIK TALABLARNING QIYOSIY TADQIQI

Rixsiyeva Lola Azimjanovna

O‘zDJTU o‘qituvchisi,

Toshkent shahri

***Annotatsiya.** Ushbu tezisdagi terminologik lug‘atlar ustida amaliy ishlar olib borib, barcha bo‘shliqlarni va kamchiliklarni imkon qadar bartaraf qilish uchun leksikograflar tomonidan terminologik lug‘atlarga qo‘yiladigan eng zaruriy talablarni ilgari surilgan. Shuningdek, keltirilgan talablar asosida ingliz va o‘zbek tillardagi geologiya terminlari bo‘yicha ma‘lum bir terminologik lug‘atlar tanlanib olindi va qiyosiy tadqiq olib borilib, soha leksikografiyasining rivojlanishiga hissa qo‘shadigan jihatlari yoritilib berildi.*

***Kalit so‘zlar.** Geologiya, geologiya terminlari, leksikografiya, leksikografik talablar, terminologik lug‘atlar*

Lug‘at har qanday davlatning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyotining ramzi hisoblanadi. Lug‘atning paydo bo‘lishi uni belgilovchi muhitning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Aniqrog‘i, leksikografiyaning rivojlanishi ma‘lum bir davrda rivojlanish darajasini ko‘rsatadi. Bugungi kunda leksikografiya oldida turgan asosiy vazifalarga insoniyat amaliyoti bilan bog‘liq bo‘lgan tarjima, ona va chet tillarini o‘rgatish, hamda hamma sohalarda chuqur bilimlarga ega bo‘lish kiradi. Leksikografiya tarixida olimlar lug‘atlarning bir nechta turlarga ajratishgan. Bunda L.V.Sherba tasnifiga ko‘ra: akademik turdagi lug‘atlar, ensiklopedik lug‘atlar, umumiy lug‘atlar, tezaurus(maxsus leksikani qamrab olgan), ideografik lug‘atlar, izohli (bir tilli), tarjima (ikki yoki ko‘p tilli) lug‘atlar, tarixiy bo‘lmagan lug‘atlar (so‘z boyligini sinxron tarzda aks ettiruvchi), tarixiy lug‘atlar

(etimologik) mavjud [4]. So‘nggi yillarda o‘quv leksikografiyasi keng rivojlandi, uning mazmuni lug‘atni o‘quv maqsadlarida tavsiflashning nazariy va amaliy jihatlarini tashkil etadi. Shunga ko‘ra, mamlakatshunoslikka oid lug‘atlar, frazeologik, terminologik, ideografik, illyustrativ lug‘atlari o‘quv lug‘atlari hisoblanadi.

Foydalanuvchilarni lug‘at nashrini sotib olishga nima majbur qilishini o‘ylab ko‘radigan bo‘lsak, mahsulot sifatida lug‘atga qo‘yiladigan ustuvor talablar quyidagilardan iboratligini bilishimiz zarur: a) leksik birliklar soni aniqligi, ta'riflar, illyustrasiyalar mavjudligi; b) lug‘atda mavjud bo‘lgan ma'lumotlarning miqdori va turi (izohlanishi, so‘zlarning etimologiyasi, me'yoriy va boshqa belgilar, so‘z yasalishi imkoniyatlari, misollar, diagrammalar, grafiklar va boshqalar); v) ensiklopedik (ma'lumotnomalarni mavjudligi); d) lug‘atning tashqi ko‘rinishi (dizayni, hajmi ya'ni, cho‘ntak versiyasidan tortib ko‘p jildli akademik nashrgacha). N.M.Timofeevaning ta'kidlashicha, olimlar tomonidan o‘quv lug‘atining informasion vazifalariga quyidagi talablar qo‘yiladi: a) leksik tarkibning bir xilligi; b) to‘liqlik (til ostidagi ma'lum bir leksemalarni aks ettirishi kerak, ya'ni informativlik nuqtai nazaridan zarur bo‘lgan so‘zlarni ma'nosini ifodalashi kerak); v) tavsifning bir xilligi (leksemalar leksikografik jihatdan batafsil va bir tekisda tayyorlanishi kerak); g) semantik ma'lumotlarning farqlanishi; d) ma'lumotning haqqoniyliigi; e) so‘zlarni tez va qulay tarzda topish afzaliklari [3]. Hozirgi kunda jahon leksikografiyasi ko‘lamiga hissa qo‘shayotgan vikipediya lug‘atlari muhim ahamiyatga ega va bunday elektron lug‘atlarni yaratish bo‘yicha respublikamizda salmoqli ishlar olib borilmoqda. Mazkur lug‘atlarga quyidagi talablar mavjudir: a) tezkor, kitobxonning vaqtini tejashi; b) universal; v) ommabop; g) so‘ralgan ma'lumotni qisqa va lo‘nda ifodalashi kerak[1].

Leksikografik talablar asosida ingliz va o‘zbek tillarda geologiya terminlari bo‘yicha tuzilgan terminologik lug‘atlarni ko‘rib chiqishimiz maqsadga muvofiq deb hisobladik. Birinchi galda Mark D. Liker rahbarligi ostida MakGrouv-Xill tahririyati tomonidan 2003 yilda Amerika Qo‘shma Shtatlarida chop etilgan “Dictionary of geology and mineralogy”-(Geologiya va mineralogiya sohasiga oid terminlarning

izohli lug‘ati)ingliz tilidagi terminologik lug‘atni tanlab oldik va tadqiq jarayonida quyidagi leksikografik talablarga javob beradi: a) internet orqali Google qidiruv tizimi yordamida geologues-prospecteurs.fr saytida ushbu lug‘atning elektron versiyasini bepul yuklab olish foydalanuvchiga qulay tarzda topish afzalligini beradi; b) to‘liq ma‘lumotga ega ekanligi, foydalanuvchi kerakli termin haqida etarlicha ma‘lumotga ega bo‘lishi uchun so‘z(termin) maqolasida termining bir nechta ta'riflari mavjud: term [FIELD] 1. Definition. 2. Definition. 3. Definition; v) Mark D. Liker rahbarligi ostida MakGrouv-Xill tahririyatining ishchi guruhida AQSh ning Nyu-Jersi universitetining lingvistika (ingliz tili) bo‘yicha faxriy professori, tilshunoslik dasturining raisi Genri F. Bichold va boshqa mas'uliyatli mutaxassislar mavjudligi lug‘atda taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlanganligini tasdiqlash mumkin; g) lug‘atning kirish so‘zida aytilgandek, mo‘ljallangan foydalanuvchiga geologiyaning tor sohalari geokimyo, geofizika, minerologiya, paleontologiya va petrologiyaga oid terminlarning ma'nolari izohlab berilgan, bu esa o‘z navbatida foydalanuvchining ehtiyojini va kutilgan natijani ta'minlangan; d) keng qamrovdagi foydalanuvchilarni inobatga olgan holda ma'lumotlar sodda, aniq, bir qancha ta'riflar yordamida va tushunarli tarzda berilishi ta'minlangan[5].

O‘zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar Davlat qo‘mitasi tassarrufidagi “Mineral resurslar ilmiy-tadqiqot instituti” Davlat korxonasi mutaxassislari va asosiy mualliflari B.A.Isaxodjaev, M.U.Umarxodjaev, A.A.Adilov, M.M.Pirmazarov,A.M.Azimovlar tomonidan 2007 yilda chop etilgan ikki jildli geologiya sohasiga oid “Geologiya atamalarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati” o‘zbek tilidagi terminologik lug‘ati sifatida tanlab oldik va tadqiq jarayonida quyidagi leksikografik talablarga javob beradi: a) internet orqali Google qidiruv tizimi yordamida Ziyouz.com saytida ushbu lug‘atning elektron versiyasini bepul yuklab olish foydalanuvchiga qulay tarzda topish afzalligini beradi; b) to‘liq ma'lumotga ega ekanligi, foydalanuvchi kerakli termin haqida etarlicha ma'lumotga ega bo‘lishi imkonini beradi. Misol uchun: Galogenez–Galogenez(arid zonalardagi havzalardan sho‘r suvning bug‘lanishi natijasida tuz uyumi hosil bo‘lish jarayoni. Tuzli eritma nihoyatda sho‘r (hatto tuz kristallari bor) bo‘lib, "rapa" deb ataladi. Hosil bo‘ladigan

minerallar va o'ziga xos elementlarga ko'ra karbonatli, sulfatli va xloridli galogenez bo'ladi. Havzani to'yintiruvchi suvning kelib chiqishiga qarab kontinental va dengiz galogenez ma'lum); v) Mazkur lug'atni tuzishda ko'plab ruscha-o'zbekcha lug'atlardan, darsliklardan, o'quv qo'llanmalardan va ilmiy monografiyalardan foydalanilgani, mualliflar akademiklar K.N.Abdullabekov, X.A.Akbarov, T.N.Dolimov, Sh.A.Usmonov, geologiya-mineralogiya fanlari doktorlari Z.M.Abdumuzimova, I.M.Golovanov, V.Ya. Zimalina, V.D.Soy, Sh.E.Ergashev texnika fanlari doktori A.A. Abdumajitovlar bergan maslahatlari va ko'rsatmalari tufayli lug'atda taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlanganligini tasdiqlash mumkin; g) mo'ljallangan foydalanuvchiga, ya'ni geologiya va ma'dan konlari bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar uchun geologiyaga daxldor terminlarning ma'nolari izohlab berilgan va foydalanuvchining ehtiyojini va kutilgan natijani ta'minlangan; d) keng qamrovdagi foydalanuvchilarni inobatga olgan holda, geologiya va uning tarmog'larida qabul qilingan ma'lumotlar tushunarli va lo'nda qilib tavsiflangan va amaliyot aprotasiyasidan o'tgan yondashuvlar doiralarida qisqacha, ayrim hollarda juda soddalashtirilgan holda izoh berilgan[2].

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillarda geologiya terminlari bo'yicha leksikografik talablarni chog'ishtirma tadqiq qilish uchun ingliz tilidagi tanlab olingan "Dictionary of geology and mineralogy" va o'zbek tilidagi "Geologiya atamalarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati" orqali oldimizga qo'yilgan leksikografik talablar chog'ishtirilganda umumiylikni kuzatdik. Keltirilgan ingliz va o'zbek tilidagi lug'atlar taqdim etilgan talablarga to'liq mos ravishda ekanligi boshqa sohalar uchun terminologik lug'at tuzishda namuna bo'lib xizmat qilishadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dadaboev H.A. "Zamonaviy o'zbek leksikografiyasi va terminologiyasi" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua, Toshkent, 2016.
2. Isaxodjaev B.A., Umarxodjaev M.U., Adilov A.A., Pirnazarov M.M., Azimov A.M. "Geologiya atamalarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati", Toshkent, 2007.

3. Тимофеева Н. М. Проектирование учебных словарей по педагогическим дисциплинам, Дис. ... канд. пед. наук, Смоленск, 2004.
4. Щерба Л.В. “Языковая система и речевая деятельность”, Санкт-Петербург, 1974.
5. McGraw-Hill. “Dictionary of geology and mineralogy”, USA, 2003.

THE ANALYSIS OF IDIOMATIC LANGUAGE IN ENGLISH LANGUAGE INCLUDING THE WORDS RELATED TO KITCHENWARE

Sobirova Feruza Islomjon qizi

State University of World Languages of Uzbekistan

Department of Methods and Teaching Technology of English Language
Teaching

***Annotation.** This article delves into the role and importance of kitchenware-related idioms within the English language. By scrutinizing their origins, connotations, cultural implications, prevalence in daily discourse, and impact on linguistic and literary realms, this study endeavors to illuminate the intricate web of idiomatic expressions integral to English communication. Employing methodologies from linguistic analysis and cultural studies, this research offers discerning observations on how these idioms mirror prevailing societal standards, customs, and beliefs, thereby shaping modes of communication and cultural manifestations.*

***Key words.** Idiom, kitchenware, discourse, custom, belief.*

Idioms are a fundamental component of language and are essential to communication. They act as indicators of a community's values, beliefs, and customs, acting as cultural markers. Kitchenware-related idioms have been incorporated into English, which not only gives everyday discussions a distinctive taste but also illustrates the influence of culinary activities on language use. They give speakers a creative and effective way to express abstract concepts and feelings, adding to the language's richness and complexity. We can better grasp kitchenware idioms' metaphorical implications and cultural resonances by looking at how they are used in diverse contexts. We can clarify the complex relationship